

“MA’QULLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashining 2024-yil 30-avgustdagi 18-sonli majlis bayoni bilan

“TASDIQLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Aksiyadorlarining 2024-yil 27-sentabrdagi 4-sonli umumiy yig‘ilishi bayoni bilan

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining Boshqaruvi to‘g‘risidagi Nizom

(yangi tahrirda)

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatları” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda matnda - “Bank” deb yuritiladi) Ustaviga asosan ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvining (keyingi o‘rinlarda matnda - “Bank Boshqaruvi” deb yuritiladi) maqomini belgilaydi va uning ishini, a’zolarini tayinlash tartibini, shuningdek boshqaruv a’zosining huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.

2-bob. Bank Boshqaruvini tuzish tartibi

2. Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijro etuvchi organ – Rais rahbarligida ishlaydigan Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

3. Bank Boshqaruvi raisi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). Boshqaruv a’zolari Boshqaruv raisining taqdimnomasiga ko‘ra Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi).

Boshqaruv a’zoligiga ko‘rsatilayotgan nomzodlar lavozimga kirishishidan oldin O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va qonunchilikda belgilangan tartibda bank aksiyadorlari bilan kelishib olinadi.

Shuningdek, Bankning muhim ahamiyatga ega xodimligiga nomzodlar o‘z lavozimiga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olinadi.

Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni ob’ektiv sabablarga ko‘ra oldindan kelishib olishning imkonи bo‘lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so‘rovnomada yuboradi.

4. Bank Boshqaruvi raisi bilan shartnomani Bank nomidan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolat bergen shaxs yoki Bank Kuzatuv kengashining raisi imzolaydi. Bank Boshqaruvi a’zolari bilan shartnomalarni Bank Boshqaruvi raisi imzolaydi.

5. Bank Boshqaruvi a’zoligiga nomzodlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash Kuzatuv kengashi tomonidan har bir nomzod bo‘yicha alohida amalga oshiriladi. Shuningdek chet ellik menejerlar ham tanlov bo‘yicha saralash asosida Bank Boshqaruvi a’zoligiga nomzod sifatida kiritilishi mumkin. Bunda, Bank Boshqaruvi a’zolarini tanlov asosida saralab olish tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanishi mumkin.

6. Bank Boshqaruvi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlangan shaxsga uning vazifalarini vaqtincha bajarib turilishiga yo‘l qo‘yiladi.

3-bob. Bank Boshqaruvining tarkibi

7. Bank Boshqaruvi tarkibiga:

Bank Boshqaruvi raisi, Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari, Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari, bosh buxgalter, jurist;

kompleks rahbarlari;

tarkibiy bo‘linma rahbarlari;

chet ellik menejerlar;

Bank faoliyatining muhim yo‘nalishlarini ta’minlovchi boshqa mutaxassislar kiritilishi mumkin.

8. Bank Boshqaruvi a’zolari lavozim yo‘riqnomasida belgilab berilgan vakolatlar, ular bilan tuzilgan shartnoma shartlari, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining qarorlari, Bank Boshqaruvi raisining buyruq va ko‘rsatmalari hamda ushbu Nizom doirasida ish tutadi.

Bank Boshqaruvi a’zolarini moddiy rag‘batlantirish qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, Bank faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari ijrosi hamda Bankning ichki hujjatlari va ular bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Bank Boshqaruvi raisi mazkur Nizomga muvofiq Bank faoliyatidagi o‘zgarishlar va boshqa holatlar munosabati bilan Bank Boshqaruvi tarkibiga qo‘srimcha nomzodlar bo‘yicha Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish huquqiga ega.

10. Kuzatuv kengashi, Boshqaruv raisi Bank Ustavini va u bilan tuzilgan shartnoma shartlarini qo‘pol ravishda buzganda yoki o‘z harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Bankka zarar yetkazgan taqdirda u bilan tuzilgan shartnomani muddatdan avval bekor qilishi mumkin.

11. Kuzatuv kengashining Bank Boshqaruvi raisi bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi qarori, kengash majlisida qatnashayotgan Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

12. Boshqaruv raisi vakolatlari tugatilganda, Kuzatuv kengashi uning o‘rniga boshqa shaxsni belgilangan tartibda tayinlashi mumkin yoki uning vazifasini vaqtincha bajarishni boshqa shaxsga yuklatish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

4-bob. Bank Boshqaruvi vakolatlari va vazifalari

13. Bank Boshqaruvi Boshqaruv vakolati doirasidagi barcha masalalarini mustaqil ravishda hal qiladi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasnodir.

14. Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a’zolari Bank faoliyati uchun javobgar hisoblanadi va amaldagi qonunchilik talablari, Bank Ustavi, mazkur Nizom, u bilan tuzilgan shartnoma shartlari, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari asosida faoliyatini tashkil etadi.

15. Bank Boshqaruvi:

Bankning joriy faoliyatiga tezkor rahbarlikni tashkil etadi va amalga oshiradi;

Bank boshqaruvi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va Kuzatuv kengashining qarorlarini bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi;

Bank markaziy apparati bo‘linmalari rahbarlari va filiallari rahbarlarining Bank faoliyatining aniq yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli davrlar va ishlar uchun faoliyat yakunlari to‘g‘risidagi, shuningdek ular faoliyatini taftish qilish va tekshirish natijalari bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqadi;

Bank bo‘linmalari ish amaliyotiga eng ilg‘or bank texnologiyalari, bank ishlarni kompleks avtomatlashtirish loyihalari joriy etilishini tashkil etadi, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratilishini ta’minlaydi;

Bankning filiallari va boshqa alohida bo‘linmalari tarmog‘ini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etadi va amalga oshiradi;

Bank mijozlariga ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha foiz stavkalarini va vositachilik haqi miqdorini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida Bank aktivlarining diversifikatsiyalanishini amalga oshiradi;

Bank tomonidan Markaziy bank belgilagan iqtisodiy normativlarga, Markaziy bankda majburiy zahiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta’minlaydi;

Bankning kapitali va likvidli resurslari yetarli darajada bo‘lishini, shubhali va bekor turgan aktivlarga qarshi ularni klassifikatsiya qilish asosida zaxiralar yaratilishini ta’minlaydi;

Risklarni boshqarish bo‘yicha Bank Boshqaruving vakolatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

Bank risklarini boshqarish siyosatni amalga oshirish uchun javobgar tarkibiy tuzilmani tashkil etgan holda, Bank risklarini baholash va boshqarish jarayonini tashkillashtirish;

risklarni boshqarish tartib va qoidalarini belgilab beruvchi ichki hujjatlar (nizom, tartib – qoidalar, reglament va boshqalar)ni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan risklar ro‘yxatini aniqlash hamda risk limitlari jami darajasini belgilash;

aniqlangan risklar yuzasidan operativ Boshqaruq qarorlarini qabul qilish;

risklarni bartaraf etish va boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni tasdiqlash va ularni bajarilishini nazorat qilish;

risk menejmentining prinsiplari bo‘lgan iqtisodiy normativlarni bajarilishini tashkil etish va ta’minalash (kapitalning monandlik koefitsienti, risk konsentratsiyasi, kredit riski, likvidlilik koefitsienti, aktivlarni tasniplash va zahiralar yaratish, ochiq valyuta mavqeい limiti);

qonun hujjatlarida belgilangan tartibga va xalqaro standartlarga muvofiq Bank buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishi hamda moliyaviy hisobotini tayyorlashni tashkil etadi;

Bankning kadrlar tarkibi tayyorlanishini va qayta tayyorlanishini ta’minlaydi, eng o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni rag‘batlantirish, shuningdek, zaruriyat bo‘lganda, xodimlarga nisbatan intizomiy jazolar qo‘llash va ulardan intizomiy jazolarni olib tashlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

Kuzatuv kengashining qarorlarini bajarilishini ta’minlaydi;

Kuzatuv kengashi va muassisalarning birinchi talabi bo‘yicha moliyaviy hisobotni va bank faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotlarni o‘z vaqtida taqdim etadi;

Kuzatuv kengashi oldida bank faoliyatining moliyaviy natijalari uchun belgilangan tartibda hisobot beradi;

Kuzatuv kengashida ko‘rib chiqish uchun bankni rivojlantirish strategiyasi, bankning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, Kuzatuv kengashi vakolatlariiga taalluqli boshqa masalalar bo‘yicha takliflar kiritadi;

Bank bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi;

Bankning joriy faoliyati masalalarini tartibga soladigan ichki hujjatlarni tasdiqlaydi, tasdiqlanishi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli bo‘lgan ichki hujjatlar bundan mustasno;

ishchi organlarni, shu jumladan Bank qo‘mitalarini tuzadi, ularning vakolatlarini belgilaydi, ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Bankning markaziy apparati bo‘linmalari rahbarlari, filiallari/mintaqaviy markazlari boshqaruvchilari va bosh buxgalterlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tayinlaydi va egallab turgan lavozimidan bo‘shatadi;

Kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda o‘z vakolatlari doirasida mol-mulk sotib olish va uni begonalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan yirik bitimlar, shu jumladan korxonalarga kredit berish bo‘yicha yirik bitimlar (umumiy qiymati qaror qabul qilingan sanada bank so‘f aktivlari miqdorining 15 foizdan ko‘prog‘ini tashkil qiladigan bitimlar yoki o‘zaro bog‘liq bir necha bitimlar) tuzadi;

Bank Boshqaruvi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e’lon qiladi;

Bankni o‘rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi hamda Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi muhokamasiga tasdiqlash (ma’qullash) uchun kiritadi;

xorijiy tajribada muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan boshqaruv uslublarini, maxsus dasturiy mahsulotlar va boshqalarini keng qo‘llaydi;

Bank boshqaruvi, Bankda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarur bo‘lganda, Bankning rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etadi;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlariga rioya qilish, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarlilagini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalgalashadi;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o‘rtasida o‘z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta’mindaydi;

Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga va kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo‘llanilgan choralar hamda sanksiyalar to‘g‘risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etadi;

Boshqaruv raisi yoki o‘rinbosarlari joylarda ko‘chma majlis o‘tkazishlari mumkin hamda ushbu ko‘chma majlis qarori Bank Boshqaruvida tasdiqlangan taqdirda kuchga kiradi;

Bankning biznes-risklarini va Bank Boshqaruvining majburiyatlarini sug‘urtalashni amalgalashadi;

o‘quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirdarda ishtirok etish orqali o‘z malakasini va Bankning tarkibiy bo‘lim raxbarlarining malakasini oshirib boradi;

qaror qabul qilishda oxirgi hisobot davri bo‘yicha Bank so‘f aktivlari miqdorining bir foizidan ortiq bo‘lmanan miqdorda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, bunda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko‘rsatishning jami miqdori joriy yil uchun tasdiqlangan biznes-reja ko‘rsatkichlaridan oshmasligi;

Bank faoliyatining boshqa masalalarini ko‘rib chiqadi va hal etadi.

16. Bank Boshqaruvi majlislarini o‘tkazishni Bank Boshqaruvi raisi tashkil etadi, u bank nomidan barcha hujjatlarni hamda Bank Boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi, Bank Boshqaruvi qabul qilgan qarorlarga muvofiq o‘z vakolat doirasida ish yuritadi.

17. Bank Boshqaruvi raisi Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, Bank nomidan bitimlar tuzadi, bankning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, bankning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

18. Bank Boshqaruvi a’zolarining huquq va majburiyatlarini tegishinchcha, Bank Ustavida hamda ularning har biri Bank bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi va Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi vakolat bergen shaxs yoki Bank Kuzatuv kengashining raisi tomonidan imzolanadi.

19. Bank boshqaruvi va Bankning tegishli bo‘linmalari rahbarlari Bank hisobotidagi axborotning ishonchliligi uchun javob beradi.

20. Bankning filiallari/mintaqaviy markazlari boshqaruvchilarini va bosh buxgalterlari Bank boshqaruvi raisi tomonidan tayinlanadi hamda Boshqaruv raisi Bank nomidan Bank filiallari/mintaqaviy markazlari boshqaruvchilarini va bosh buxgalterlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi.

21. Bank xodimlari Bank Ustavi hamda mazkur Nizom va qonun hujjatlariga muvofiq Bank boshqaruvi raisi yoki bank filiali/mintaqaviy markazlari boshqaruvchilarini bilan mehnat shartnomasi tuzadilar.

5-bob. Bank Boshqaruvining ish tartibi

22. Bank Boshqaruvi majlisi bir oyda kamida bir marta o‘tkaziladi. Bank Boshqaruvi tomonidan Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda Bank Boshqaruvi majlisida oldindan muhokama etiladi. Bank Boshqaruvining taklifi haqida Kuzatuv kengashida va aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida Bank Boshqaruvi raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Bank Boshqaruvi a’zosi axborot beradi.

23. Bank Boshqaruvi majlislarini Bank Boshqaruvi raisi, Boshqaruv raisi bo‘lmanan holda uning o‘rinbosarlaridan biri olib boradi va Bank Boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi.

Bank Boshqaruvi qarorlari va bayonnomalari Boshqaruv a’zolarining uchdan ikki qismi tomonidan imzolanganda vakolatli hisoblanadi. Bank Boshqaruvi qarorlari va majlis bayonnomalarida ko‘rilayotgan masalalar bo‘yicha Boshqaruv a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda, Boshqaruv tomonidan qaror qabul qilishda, bank Boshqaruvi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Bank Boshqaruvi majlisida masalalarni hal qilishda Bank Boshqaruvining har bir a’zosi bir ovozga ega bo‘ladi.

24. Bank Boshqaruvi kotibi boshqaruv majlislari bayonnomalari yuritilishini tashkil etadi.

6-bob. Bank Boshqaruvi a'zolarining javobgarligi

25. Bank Boshqaruvi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim. Ular o'z ishlarining natijalari uchun qonun hujjatlariga muvofiq Bank oldida javob beradilar.

Agar ushbu band qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolarining javobgarligini sug'urtalash mumkin va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari asosida javobgarlikni sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qilish, sug'urta limitlarini va sug'urta kompaniyasini belgilash Kuzatuv Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

26. Bank Boshqaruvi a'zosi tuzilayotgan bitimda moliyaviy manfaatdor bo'lsa agar tuzilayotgan bitimda bir tomonidan Bank qatnashayotgan bo'lsa, unda u qaror qabul qilinguncha o'zining manfaatdorligi to'g'risida xabar berishga majbur va ovozga qo'yilganda u qatnashmaydi.

27. Bank Boshqaruvi a'zolari ularga berilgan xizmat vakolatlaridan mehnat munosabatlarida bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanmasliklari kerak.

28. Bank Boshqaruvi a'zolari shaxsiy foyda ko'rish maqsadida bankning mol-mulkini tasarruf qilishda su'istemoliklarga yo'l qo'yilmasligi kerak.

29. Bunda ovoz berishda bankka zarar keltirishi mumkin bo'lgan qaror muhokamasida qatnashmagan yoki qarorga qarshi ovoz bergan Bank Boshqaruvi a'zolari javob bermaydilar.

7-bob. Yakuniy qoidalar

30. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

31. Ushbu Nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va bekor qilingan kunga (yangi Nizom qabul qilingan kunga) qadar amal qiladi.

32. Agar ushbu Nizomning me'yorlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustavidagi tartib hamda normalariga zid bo'lsa, unda Nizom amaldagi normalarga moslangunga qadar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va Bank Ustavida belgilangan normalar qo'llaniladi.